

.....

CHO‘LPON HIKOYALARIDA REALISTIK POETIKA VA RAMZIY OBRAZLAR (*“Qor qo‘ynida lola” hikoyasi misolida*)

Mohiraxon Zokirova

Alfraganus universiteti

O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Cho‘lponning **“Qor qo‘ynida lola”** hikoyasining badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari hamda unda jadidchilik g‘oyalarining ifodalanishi tahlil etilgan. Tadqiqotda hikoyaning ramziy obrazlari, xususan, **qor** va **lola** timsollarining semantik mazmuni ochib berilib, ular orqali XX asr boshlaridagi ijtimoiy-ma‘naviy muhit, jaholat, ilmsizlik va milliy uyg‘onish g‘oyalari yoritiladi. Shuningdek, Sharofatxon obrazi misolida ayol taqdiri, ijtimoiy adolatsizlik, diniy mutaassiblik va oilaviy muammolarning badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda ota-ona mas‘uliyati, ayolning jamiyatdagi o‘rni hamda ma‘rifatning inson va millat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijasida Cho‘lpon hikoyachiligida ramziy tasvirlar, psixologik tahlil va realistik uslub vositasida xalqning erk va ozodlikka intilishi hamda milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalandigani xulosalanadi.

Kalit so‘zlar:Cho‘lpon, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi, jadid adabiyoti, ramziy obraz, realizm, ayol taqdiri, milliy uyg‘onish, ma‘rifatparvarlik, jaholat, psixologik tahlil, badiiy talqin, o‘zbek nasri, erk va ozodlik, XX asr o‘zbek adabiyoti.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida jadid adabiyoti vakillari Abdulla Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon singari ijodkorlar alohida o‘rin egallaydi. Ular milliy adabiyotimizni mazmun va shakl jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, o‘zbek nasrida realistik yo‘nalishning qaror topishiga muhim hissa qo‘shdilar. Ana shu adiblar orasida Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li) ayniqsa hikoya janrida o‘ziga xos poetik maktab yaratgani bilan ajralib turadi.Cho‘lpon hikoyalarida hayotiy haqiqatni badiiy idrok etish, ijtimoiy muammolarni inson ruhiyati bilan uzviy bog‘lab tasvirlash yetakchi o‘rin tutadi. XX asr boshlarida o‘zbek nasrida realizm shakllanayotgan bir davrda adibning samarali ijodi adabiyotimiz taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Cho'lponning nasriy merosini ilmiy o'rganish, asosan, 1987-yildan keyin faollashdi. O. Sharofiddinov, U. Normatov, S. Mamajonov kabi adabiyotshunos olimlar Cho'lpon asarlarining badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratdilar.

Cho'lpon hikoyalarida milliy uyg'onish g'oyalari, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, inson ruhiy kechinmalari, ayol taqdiri hamda ozodlik masalalari badiiy ifoda vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Adibning "Qor qo'ynida lola" hikoyasi johiliyat davrida ayollarning ayanchli qismatini tasvirlovchi asarlar sirasiga kiradi. Cho'lpon poetikasini chuqur anglash uchun adib ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatgan jadidchilik harakatining ijtimoiy-ma'rifiy mohiyatiga qisqacha to'xtalish zarur.

Hikoyani o'qir ekanmiz, avvalo uning sarlavhasi diqqatni tortadi: nega aynan "qor" va "lola"? Ma'lumki, lola bahorning, yangilanish va umidning ramzi bo'lsa, qor qahraton qish, sovuqlik va turg'unlikni anglatadi. Tabiatda bu ikki hodisaning yonma-yon uchrashi mushkul. Shu bois hikoyadagi obrazlar ramziy ma'noga ega. Lola – xalqning uyg'onish sari intilishi va umid nishonasi, qor esa chorizm davri, jaholat, ilmsizlik va ijtimoiy zulm ramzi sifatida talqin etiladi. Cho'lpon ushbu hikoya orqali XX asr boshidagi jamiyatning ma'naviy tanazzulini badiiy ifodalaydi. Asarda hali bolalik dunyosidan uzilmagan, hayotning mohiyatini anglamagan, endigina 17 yoshga qadam qo'yayotgan Sharofatxonning ayanchli taqdiri tasvirlanadi. Qizaloq otasining qarzlarini "qoplash" evaziga eshonga tuhfa sifatida beriladi. Sharofatning otasi Samandar o'zini "xudojo'y" va "taqvodor" deb bilgan eshonning xizmatkori bo'lsa-da, qizining taqdiriga nisbatan befarqlik ko'rsatadi. Kuyov esa yosh qizga munosib bo'lmagan, dinni o'z manfaatlari yo'lida vosita qiluvchi, riyo va johillik timsoliga aylangan obraz sifatida gavdalanadi. Otasi tomonidan aytilgan "bitta qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizga tutdik, sadag'ali ketsin" degan so'zlar Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi obrazini esga soladi. Har ikki qahramon ham ota mehridan bebahra, oilada shaxs sifatida emas, balki buyum darajasida ko'riladi. Sharofatning onasi Qumribibi ham, Zebining onasi Qurbonbibi ham ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ojiz, qizining taqdiri haqida fikr bildirishga qodir bo'lmagan ayollar sifatida tasvirlanadi.

Muallif bu fojiali holatlarning ildizini ilmsizlik va jaholatda ko'radi. Chorizm

davrida jamiyatning ich-ichidan yemirilgani, oilaviy munosabatlarning buzilgani, inson taqdiri boshqalar qoʻlida oʻyinchoqqa aylangani koʻrsatiladi. Choʻlpon oila timsoli orqali jamiyatning umumiy ahvolini ochib beradi. Ilmsizlik esa oxir-oqibat millatning oʻzligini yoʻqotishiga, din, madaniyat va davlatning tanazzuliga olib kelishini badiiy asosda koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Choʻlpon asar janrini “xayoliy hikoya” deb belgilashi unda yaratilgan badiiy voqelik bilan real hayot oʻrtasidagi murakkab munosabatlardan kelib chiqadi. Adibning sheʼrlari, romanlari va hikoyalarida xalq dardiga chuqur hamdardlik, erk va ozodlik gʻoyalariga sadoqat, millatni maʼnaviy uygʻotishga daʼvat kuchli aks etadi. “Qor qoʻynida lola”, “Nonvoy qiz”, “Doktor Muhammadiyor” kabi hikoyalar Choʻlponning hikoyachilik mahoratini yaqqol namoyon etib, xalqning dardini, kundalik hayotini, maʼnaviy tarqoqligini yuksak badiiy saviyada ochib bergan asarlar sifatida adabiyotimizda muhim oʻrin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Sharifiy J., Sharofiddinov O., Sultonova Y. Kecha va kunduz. Qizil Oʻzbekiston, 1937.
2. Quronov D. Choʻlpon nasri poetikasi. Sharq, 2004. –218 b.
3. Turdiyeva, Y. (2022). “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA QAHRAMONLAR PORTRETINING BADIY TAHLILI. OLIY VA OʻRTA MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI FARGʻONA DAVLAT UNIVERSITETI, 488.
4. Ibragimova, D. I. (2024). AN ANALYSIS OF ISAJON SULTON’S HISTORICAL PROSE: ERA, HEROES, THEMES, AND IDEAS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 120-127.
5. Dusmuratovna, J. S. SELF-STUDY AS A SOURCE OF BOOSTING NEW KNOWLEDGE. EDITORIAL BOARD, 605.
6. Abdurashidovna, A. K. (2024). The impact of extensive listening on the listening comprehension skills of EFL university students. In *International Conference on Interdisciplinary Science* (Vol. 1, No. 10, pp. 236-238).
7. Abdurashidovna, A. K. COLLABORATIVE LEARNING IN ENGLISH CLASSES THROUGH DIGITAL WHITEBOARDS AND ONLINE PROJECTS.
8. Abdurashidovna, A. K. (2025). THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION AT NON-LINGUISTIC SPECIALTIES OF STUDY: A CASE STUDY OF ALFRAGANUS UNIVERSITY. *Modern education and development*, 33(2), 166-175.
9. Abdurashidovna, A. K. (2025). ENHANCING ENGLISH LANGUAGE SKILLS THROUGH DIGITAL TOOLS IN NON-LINGUISTIC UNIVERSITIES. *Modern education and development*, 33(2), 161-165.

10. Абдуллаева, Ш. А., & Абдуллаева, К. А. (2024). ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СРЕДСТВАМИ ГЕЙМИФИКАЦИИ. Science and innovation, 3(Special Issue 41), 15-18.